

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARI TAYYORLASH BO'YICHA)**
09/2225 – sonli

“18 “Mart 2022yil

Samarqand sh.

Bizlar “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan 2022 yil 17 martdagি 37-sonli buyruq asosida ish yurituvchi direktor o'rnbosari **L.Barakayev** bir tomonidan va «Maroqand Bunyodkor Qurilish» MChJ (Keyingi o'rnlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi A.I.Davlatov ikkinchi tomondan “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK xarid komissiyasining “15” mart 2022 yildagi 47599-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: A. Temur MFY Orzu Maxmudov ko'chani joriy ta'mirlash ishlari uchun loyixa – smeta xujjatlarini tayyorlash belgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalgga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 2 988 455 (ikki million to'qqiz yuz sakson sakkiz ming to'rt yuz ellik besh) so'mni tashkil qiladi.

3. TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalgga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovini amalgga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlар pul ko'chirish yo'li bilan amalgga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalgga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolangandan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalgga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalgga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalgga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, «Bajaruvchi»ning

rozilgisiz shartnomaga bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlari tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamehi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnomaga bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.

5.1. Loyerha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarni bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rioxasi qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlari va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning rozilgisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarni o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib so'ng ekspertiza xulosasi uchun to'lovlarni amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnomaga bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomaga tomonlar imzolangandan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnomaga ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ushu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandalarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnomaga G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlari bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergen vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «**Bajaruvchi**» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «**Buyurtmachi**»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

8. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'l maydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «**Buyurtmachi**» va «**Bajaruvchi**» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rlishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlari bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalgalga oshirmslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlardan taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lган tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «**Bajaruvchi**» loyihami muddatidan oldin bajargan holda «**Buyurtmachi**» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limida belgilangan tartibda to'lovnini amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «**Bajaruvchi**» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «**Buyurtmachi**»ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «**Bajaruvchi**»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlari nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi. Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «**Buyurtmachi**» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «**Bajaruvchi**» tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «**Buyurtmachi**»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

miqdorida penya to‘lanadi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiyamatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To‘langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g‘aznachilik bo‘limidan ro‘yxatdan o‘tganidan so‘ng xukukiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o‘zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

“BUYURTMACHI”

Nomi: “Samarqand mintaqaviy yo‘llarga

buyurtmachi xizmati” DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabihev ko‘chasi 3-uy


Bank: Samarqand sh. AKIB “Ipoteka bank”

L/s: 304521860184017045129118015

STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED:70220

Direktor o‘rinbosari v.b.  Barakaev

Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchilik talablariga rivoja qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarning shakllantirilishiga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Yurist 

Yurist 

Moliya vazirligi g‘aznachiligi X/R 234020003000100001010

Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi

Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1

STIR (INN)201122919 MFO 00014 OKED:97160

Tel 2335853, 231-11-52

Ro‘yxatga olindi. 

“BAJARUVCHI”

Nomi: «Maroqand Bunyodkor Qurilish» MChJ

Manzili: Samarqand sh. Ko‘ksaroy maydoni 1,
1-blok «V» 1-qavat.

Bank nomi: Toshkent sh., AT "Aloqabank" bosh ofisi
X/R: 20208000804841414001

MFO: 00401

STIR: 301327746

OKNX: 71110

Direktor:  A.I.Davlatov